

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA MANTIQUIY VA BILISH
FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Yo'ldasheva Nodira Adashboy qizi

Kirish: Bugungi kunda ta'lim sohasidagi yangiliklar va zamonaviy metodlar bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta etibor qaratmoqda. Xususan, mantiqiy fikrlash yosh bolalarning muammolarini hal qilish va mantiqiy yondashuvni rivojlantirish qobiliyatining asosidir.

Mantiqiy fikrlash bolaning dunyoqarashini shakllantirish, muammolarini hal qilish va yangicha fikrlash uslublarini rivojlantirishning asosidir.

Zamonaviy metodlar: Hozirgi kunda zamonaviy metodlar turli sohalarda yangilangan, innovatsion va ilg'or usullar yoki yo'llar tushuniladi. Zamonaviy metodlar ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi, ular nafaqat bilim berish, balki talabalarning ijodiy va kritik fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy metodda quyidagilarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. **Project-based learning, PBL:** Bu metodda talabalar maxsus loyihalarini amalga oshirish orqali nazariy bilimni amaliy ko'nikmalarga aylantiradilar;

2. **Kooperativ ta'lim:** Bu metodda talabalar jamoaviy ishlash orqali muammolarni hal qilishga harakat qiladilar;

3. **Interaktiv texnologiyalar:** Zamonaviy o'quv dasturlar va multimedia vositalari (videolar interaktiv taqta, mobil ilovalar) ta'limni qiziqarli va samarali qilib shakllantirishga yordam beradi.

4. **Real vaqtda fikrlash va muloxazalar:** Bu metodda o'quvchilar fikrlash va muhokama qilish uchun turli interaktiv platformalarda ishlashadi.

Mantiqiy fikrlar: Mantiqiy fikrlash bu insonning muammolarini hal qilish, ma'lumotni tahlil qilish va izchil hulosalarga kelish qobiliyati. Mantiqiy fikrlashda aniq va tushunarli fikrlarni bir-biriga bog'lash orqali natijaga erishiladi. Mantiqiy fikrlash umuman, kundalik hayotda, ta'limda, ilmiy tadqiqotlarda va ish hayotida muhim rol o'ynaydi. U talabalarga, va har qanday shaxsga muammolarni yahshiroq tushunish va ularga samarali yechimlar topishda yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashda quyidagilarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. **Analiz va sintez**

Analiz-malumotlarni qismlarga bo'lish va har bir qismni alohida o'rganish.

Sintez-tarkibiy qismlarni birlashtirish va ulardan yangi natija yoki hulosasi chiqarish.

2. **Induktiv va deduktiv fikrlash**

Induktiv fikrlash-hulosa qilishda umumiy qoidalarga kelib, mahsus holatlarni o'rganishdan kelib chiqadi.

Deduktiv fikrlash-umumiy qoidalardan muayan hulosalarga kelish.

3. **Dialektik fikrlash:** Bu ham umumiy va mahsus, ham o'tgan va kelajak, ham ma'lum va noma'lumni o'zaro bog'lashga yordam beradigan fikrlash usulidir.



Date: 17th October-2025

4. Modellash va gipotezalar: Mantiqiy fikrlashning yana bir muhim jihati-muammolarni modellashtirish va gipotezalarni yaratish.

Innovatsion metodlarida ta'limdagi yangi yondashuvlarni, texnologiyalarni va ishlash usullarini o'z ichiga oladi, ular o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Innovatsion metodlar ta'limni samarali va yoqimli qilishga, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini aniqlashga va ularni rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion metodlar ishda yoki hayotda yangi, samarali va yangicha yondashuvlarni qo'llash. Ushbu metodlar zamonaviy bilimlarni, texnologiyalarni va faoliyat usullarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib ularning maqsadi talabalarni yoki ishchilarni samarali rivojlantirish va ularning eng yahshi natijalarga erishishini ta'minlashdir.

Ta'lim usullarida esa o'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazish, bilimlarni shakillantirish va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan turli yondashuv va strategiyalardir. Interaktiv o'qitish usullari o'quvchilarni faol muloqotga jalb qiladi va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

1. **Munozara va baxs-munozaralar**-o'quvchilar turli masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildirishadi qarashlaribi tahlil qilishadi.
2. **Rolli o'yinlar**-real hayotdagi vaziyatlarni modellashtirish orqali muammolarga yechim izlash ko'nikmasi rivojlanadi.
3. **Jamoaviy ish usullari**-o'quvchilar guruhlariga bo'linib, birgalikda muammolarni hal qilishadi, bu esa mantiqiy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini oshiradi.

Innovatsion yondashuv ta'lim jarayoniga yangi, zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish usulidir. Uning asosiy maqsadi-o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va ijodiy yondashishga o'rgatishdan iborat. Innovatsion yondashuv usullari:

1. **STEAM-ta'lim** (Science, Technology, Engineering, Arts, Matamatics)-fanlar o'rtasida bog'liqlikni shakillantirish.
2. **Fasilitsatsiya usuli**-o'qituvchi yo'naltiruvchi sifatida qatnashib, o'quvchilarning mustaqil izlanishiga yo'l ochadi.
3. **Onlayn ta'lim platformalari**-Google Classroom, Moddle, Coursera kabi raqamli vositalardan foydalanish.
4. Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar –o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga o'rgatish.

Qobiliyatlar va mahorat: Bu insonning ma'lum bir faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan shaxsiy imkoniyatlari va ichki resurslari. Qobiliyat inson tug'ilganidan boshlab mavjud bo'lishi mumkin yoki tajriba, ta'lim va mashg'ulotlar orqali shakillanishi mumkin. Qobiliyat turlari quyidagilardan iborat:



Date: 17th October-2025



1. **Tabiiy (biologik) qobiliyatlar**-insonning tugʻma hususiyatlari, masalan, musiqaga, sportga yoki sanʼatga boʻlgan isteʼdod.

2. **Intellectual qobiliyatlar**- mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yechim topish qobiliyati.

3. **Ijtimoiy qobiliyatlar**-jamoada ishlash, odamlar bilan muloqot qilish va rahbarlik qobiliyati.

4. **Psixomotor qobiliyatlar**-jismoniy harakatlar bilan bogʻliq boʻlgan qobiliyatlar, masalan, sport yoki xunarmandchilik maxorat. **Qobiliyat va maxorat farqi:**

1. **Qobiliyat**-insonning maʼlum bir sohada muvaffaqiyatli boʻlishga boʻlgan tabiiy imkoniyati.

2. **Maxorat**-mashq va tajriba natijasida shakillangan amaliy koʻnikma.

Qobiliyatlarni rivojlantirish usullari:

1. Maqsadga yoʻnaltirilgan mashq va oʻrganish.

2. Innovatsion metodlar va yangi tajribalardan foydalanish.

3. Motivatsiya va oʻz ustida ishlash.

4. Muammolarni hal qilish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish.

Qobiliyat inson shaxsiyatining muhim qismidir va uni rivojlantirish orqali katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Texnologiyalar: Bu maʼlum bir maqsadga erishish uchun resurslar, bilim va usullardan samarali foydalanish jarayoni. Texnologiya ishlab chiqarish, taʼlim, tibbiyot, axborotkommunikatsiya va boshqa sohalarda qoʻllaniladi. **Texnologiyalarning asosiy xususiyatlari:**

1. **Samaradorlik**-jarayonlarni tez va aniq bajarish imkoniyati.

2. **Ilmiy asoslanganlik**-fan va texnik taraqqiyotga tayanishi.

3. **Yangilik**-yangi vositalar va usullardan foydalanish.

4. **Universallik**-turli sohalarda qoʻllash imkoniyati.

Texnologiya turlari:

1. **Axborot texnologiyalari (IT)**-komputer, internet va raqamli vositalardan foydalanish.

2. **Ishlab chiqarish texnologiyalari**-sanoat va qishloq, xoʻjaligida mahsulot tayyorlash jarayonlari.

3. **Taʼlim texnologiyalari**-innovatsion oʻqitish usullari va raqamli platformalar.

4. **Biotexnologiya**-tibbiyot va qishloq xoʻjaligida biologik jarayonlardan foydalanish.

5. **Energetika texnologiyalari**-qayta tiklanuvchi energiya manbalari va samarali energiya ishlab chiqarish usullari.

Texnologiyalar hayotimizni osonlashtiradi va turli sohalarda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki yosh oʻquvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhimdir.

Date: 17th October-2025

Interaktiv usullar, AKT texnologiyalari, tanqidiy fikrlash mashqlari va geymifikatsiya ta'lim jarayonini samarali qiladi.

O'quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish orqali ularni kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakillantirish mumkin.

Innovatsion yondashuv ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu usullar yosh avlodning bilim olish jarayonini yaxshilash, ularni kelajakda raqobatbardosh va ijodiy shaxs sifatida shakillantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tulnova I.B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Sankt-Peterburg, 2019.
2. Polyakov B.G. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Moskva, 2015.
3. Lipman M. Tanqidiy fikrlash nazariya va amaliy usullar. Moskva, 2018.
4. Vinogradova N.F Maktabda inovatsion o'qitish metodlari. Moskva, 2017.
5. Markova A.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Sankt-Peterburg, 2015.
6. Robert Kigan. Fikrlashni rivojlantirish. Kembrij, 2009.
7. Zeer E.F. Professional qobiliyatlarni rivojlantirish. Moskva, 2003.

